XALQ DEPUTATLARI QO’SHRABOT TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VI-22-135-7-97-K/25 Qo’shrabot tumani

Qo‘shrabot tumanining 2025-yil IV chorak mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarini balansliligini buzmagan holda ko‘paytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qarori ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 127-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Qo‘shrabot tumani Kengashi yettinchi chaqiriq, yigirma ikkinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qaroriga asosan tumandagi jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini mahalla jamg‘armasiga o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun 907 132,0 ming (to‘qqiz yuz yetti million bir yuz o‘ttiz ikki ming) so‘m mablag‘ zarurligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston mahallalar uyushmasi Qo‘shrabot tuman bo‘limi tasarrufidagi mahallalarning “Mahalla jamg‘armasi”ga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun Samarqand viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda, Xalq deputatlari

Qo‘shrabot tumani Kengashining 2025-yil 21-yanvardagi VII-5-1-7-97-K/25-son qarori 1-ilovasidagi 7-bandi hamda 2-ilovasidagi 9-bandlari tuman mahalliy budjeti hisobidan Qo‘shrabot tuman mahalliy budjetining 2025-yil IV chorak daromadlari va xarajatlarini 907 132,0 ming (to‘qqiz yuz yetti million bir yuz o‘ttiz ikki ming) so‘m 1-ilovaga muvofiq oshirilsin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (X.Musirmanov) Qo‘shrabot tuman mahalliy budjetining 2025-yil IV chorak daromadlari va xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohatlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Bubakov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Q.Xoliqulov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **SHAKARBOYEV DILSHOD DAVRONOVICH**

Xalq deputatlari Qo’shrabot tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VI-22-135-7-97-K/25 -son qaroriga
1-ilova

a) Xalq deputatlari Qo‘shrabot tumani Kengashining 2025-yil 21-yanvardagi VII-5-1-7-97-K/25-son qarori 1-ilovasidagi 7-bandi Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming so‘mda)

Soliq turi	Tasdiqlangan parametr	Parametrga kiritiladigan o‘zgarish so‘mmasi	Jami
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	11 894 000,0	907 132,0	12 801 132,0

b) Xalq deputatlari Qo‘shrabot tumani Kengashining 2025-yil 21-yanvardagi VII-5-1-7-97-K/25-son qarori 2-ilovasidagi 9-bandi “Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming so‘mda)

Xarajat turi	Tasdiqlangan parametr	Parametrga kiritiladigan o‘zgarish so‘mmasi	Jami
“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	1 269 000	907 132,0	2 176 132,0